

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel

Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi – 1626,6 mlrd. so`m tashkil etdi.
- Jami xizmatlarning o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 645,6 ming.so'mni tashkil etdi.


Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilmalil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1626,6 mlrd. so'mni tashkil etdi .


Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatilmoqda.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (41,1 %), transport xizmatlari (17,6 %), moliyaviy xizmatlar (11,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,8 %), shaxsiy xizmatlar (3,3 %) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,1 %) tashkil qildi.


2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar tarkibi, %



Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.




Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'l sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim sohasidagi xizmatlar (136,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (135,2 %), moliyaviy xizmatlar (131,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,6 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 645,6 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari



